O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING AMALGA OSHIRILISHI

Botirov Asadbek
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Anotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekistonda olib borilgan ta’lim tizimidagi keng ko‘lamli islohotlar va ularning natijalari qisqacha ko‘rib o‘tilgan. Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan qanday chora-tadbirlar amalga oshirilganligi haqida ham so‘z yuritilgan. O‘zbekistonda ta’lim tizimida ro‘y bergan o‘zgarishlar haqida ham malumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Islohotlar, Talim to‘g‘risidagi qonun, Yangi texnologiyalar, Yangi O‘zbekiston.

Hozirgi kunda yurtimizda olib borilayotgan turli sohalardagi islohotlarni va ularning natijalarini ko‘rib quvonadi kishi. Mamlakatimizda: Iqtisodiyot, Siyosat, Madaniyat, Sport, Ta’lim, va boshqa sohalardagi islohotlar mamlakatni har tomonlama yuksaltirishga, xalq faravonlgini va yurt obodligini oshirishga qaratilgan. Birgina mustaqillik yillaridagi ta’lim tizimidagi islohotlarni olaylik. Mustaqillikdan keyin ilk ta’lim to‘g‘risidagi qaror 1992 yil 2-iyuldagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni ko‘rishimiz mumkin. Bu qonun ta’lim tizimini rivojlantirishdagi ilk qadam bo‘ldi deyish mumkin. Lekin o‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak yani mustaqillikdan oldin yurtimizda ta’lim tizimi qanday edi degan savol paydo bo‘ladi. Xo‘sh, mustaqillikdan oldin ta’lim qay ahvolda edi?

Sovet hukumati davrida ta’limga juda kam e’tibor berilgan. O‘sha davrda savodli kishilar mamlakatni oz qismini tashkil etgan. Bunga bir nechta sabablar bor edi. Bulardan biri: juda kam ta’lim muassasalarining mavjudligi edi. Yana bir sabab: ma’naviyati shakillanmagan xalqni

itoatda tutib turish oson edi, shuning uchun ham u davrda maktablarda xalqni ma'naviyatini, dunyoqarashini o'zgartiradigan fanlar o'qitilmagan. Agarda o'qitilgan bo'lsa ham ular noto'g'ri talqinlar qilinib insonlar ongiga, ma'naviyatiga singdirilgan. Biroq o'zbek xalqining mustaqillikka intilishi bularning barchasini puchga chiqardi.

O'zbekiston 1991-yil 31-avgust kuni o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umuman yurtimiz va xalqimiz uchun yangi bir davr boshlandi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov yurtimizdagi har bir soha uchun alohida e'tibor qaratdilar. Shu asnoda ta'lim sohasiga ham. Negaki mamlakatni yuksaltiradigan mexanizmlardan biri bu ta'limdir. Mustaqillikdan so'ng maktablar, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarining soni yildan yilga ko'payib boraverdi. Bularning hammasi xalqimiz ayniqsa yosh avlod uchun katta imkoniyalar yaratib berdi. Birinchi prezident I.Karimovning "biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart"[1] degan so'zlari mustaqillikdan keyingi islohotlarning natijalarida ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunga kelib esa ta'lim tizimimiz yuksak darajada rivojlanmoqda. 2016-yildan to bugungi kunga qadar yutimizda keng ko'lamli ta'lim sohasiga oid bir qancha islohotlar olib borilmoqda Buni ta'lim tizimimizda yangi texnologiyalardan, jahon tajribalaridan o'tgan ta'lim tizimlaridan unumli foydalanib kelayotganimizdan, yoshlarning jahon miqiyosida ilm-fan sohasidagi olimpiyadalarda yuqori o'rinlarni egallayotganidan ko'rish mumkin. O'zbekistonda ta'lim tizimini yaxshilash bo'yicha yana bir qonun qabul qilindi. Bu qonun 2020 yilda "Ta'lim to'g'risida" gi yangi qonundir. Ushbu qonunda ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish va yana yangi ta'lim dasturlarini joriy etishga yo'naltirilgan edi. Bu qonunni natijalarini o'qituvchilarni o'z pedagogik mahoratlarini va malakalarini oshirishlari uchun yaratib berilayotgan sharoitlardan va yurtimizda joriy qilingan Innovatsion texnologiyalardan ko'rishimiz mumkin. Ayni paytda yurtimizda "210 ta OTM"[2] lar faoliyat yuritib kelmoqda. Umumta'lim maktablar soni esa "2023-2024- o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasalarining soni 10750 ta"[3] ni tashkil etdi. Bu ko'rsatgichlar yurtimizda ta'lim sohasi o'sib, rivojlanib borayotganligidan darak beradi. Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi"[4] degan so'zlari Yangi O'zbekistonni bunyod etishda ular asosiy ustun bo'laolishliligini ta'kidlab o'tgan. Xaqiqatdan ham har bir sohaning tag ildizida bilim, ta'lim va tarbiya yotadi. Ularsiz hech bir sohani rivojlantirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham najot ta'limdadir degan so'zlar bejizga aytilmagan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki so'ngi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar jumladan: yangi darsliklar, e-maktab platformasining joriy etilishi, o'qituvchilarni malakasini oshirish va boshqalar bularning barchasi yosh avlod va pedagoglar uchun o'z salohiyatlarini oshirish imkonini beradi, shu bilan birga mamlakatning ertangi muvaffaqiyatlari uchun ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T. Manaviyat, 2010. –B.4.
2. https://fledu.uz/uz/ozbekistondagi-oliy-talim-muassasalari-soni-va-unda-qancha-talaba-talim-olishi-statistikasi/
3. https://daryo.uz/2024/04/13/ozbekistonda-maktablar-soni-songgi-5-yilda 660-taga-kopaydi/
4. https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-boladi/